

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY Tajribalar.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH Tajribasi.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR Tajribalari.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQARISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quadrat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIV TA'LIM MISOLIDA).....	289
Kariyeva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEXANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI

Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Raqamli iqtisodiyot kafedrası tayanch doktranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan. Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning tarkibiy o'zgarishlari hamda samaradorlik ko'rsatkichlari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida moliyaviy, tashkiliy-boshqaruv, institutsional va raqamli iqtisodiy mexanizmlarning samaradorlikka ta'siri o'rganildi. Ichki audit va riskga asoslangan nazorat tizimlarining xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirishdagi roli asoslab berildi. Tadqiqot natijasida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning kompleks modeli ishlab chiqildi hamda amaliy tavsiyalar taklif etildi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy mexanizm, samaradorlik, rentabellik, ichki audit, raqamlashtirish, boshqaruv tizimi, xarajatlar optimallashtirish.

Abstract. This article examines priority directions for improving economic mechanisms aimed at enhancing the efficiency of service enterprises. The role of the service sector in the national economy and its structural transformation processes are analyzed within the context of increasing competitiveness and sustainable development. The study evaluates the impact of financial, organizational-managerial, institutional, and digital economic mechanisms on enterprise performance. Particular attention is given to the role of internal audit and risk-based control systems in strengthening operational efficiency and financial stability. Based on a systematic and comparative analysis, an integrated efficiency assessment model for service enterprises is proposed. The research results provide practical recommendations for optimizing resource utilization, improving cost management systems, and implementing digital transformation strategies. The proposed mechanisms contribute to increasing profitability, improving management quality, and ensuring long-term economic sustainability of service enterprises.

Key words: service enterprises, economic mechanisms, efficiency improvement, profitability, internal audit, risk management, cost optimization, digital transformation, performance evaluation, management effectiveness.

Аннотация. В данной статье исследуются приоритетные направления совершенствования экономических механизмов, направленных на повышение эффективности деятельности предприятий сферы услуг. Проанализирована роль сектора услуг в национальной экономике и его значение в обеспечении устойчивого экономического роста. В ходе исследования дана оценка влияния финансовых, организационно-управленческих, институциональных и цифровых механизмов на показатели эффективности предприятий. Особое внимание уделено роли внутреннего аудита и риск-ориентированной системы контроля в обеспечении финансовой устойчивости и повышении результативности деятельности. На основе системного и сравнительного анализа разработана интегрированная модель оценки эффективности предприятий сферы услуг. Результаты исследования содержат научно обоснованные практические рекомендации по оптимизации использования ресурсов, совершенствованию управления затратами и внедрению цифровых технологий. Предложенные направления способствуют повышению рентабельности, укреплению конкурентоспособности и обеспечению долгосрочной устойчивости предприятий сферы услуг.

Ключевые слова: предприятия сферы услуг, экономический механизм, эффективность деятельности, рентабельность, внутренний аудит, риск-менеджмент, оптимизация затрат, цифровая трансформация, оценка эффективности, управленческая результативность.



KIRISH

Globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy modernizatsiyasi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor va strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini shakllantiradi, aholi bandligini ta'minlaydi va iqtisodiy o'sishning barqarorligini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmonida xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, hududlarda zamonaviy servis infratuzilmasini yaratish hamda xizmatlar eksportini kengaytirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan.

Bundan tashqari, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish va hududlarda servis tarmoqlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-son² qaror qabul qilindi. Mazkur qarorda xizmat ko'rsatish hajmini oshirish, yangi xizmat turlarini joriy etish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish vazifalari belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son³ Farmon hamda 2020-yilning 28-aprelidagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son⁴ qaror xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, elektron xizmatlar ulushini oshirish va biznes jarayonlarini avtomatlashtirishga huquqiy asos yaratdi.

Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son⁵ Qonuni ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda korxonalarda shaffoflikni ta'minlashning muhim huquqiy asosini yaratdi. Bu esa xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirishda ichki auditning rolini yanada kuchaytiradi.

Davlat tomonidan yaratilayotgan qulay iqtisodiy va institutsional sharoitlarga qaramay, korxona darajasida samaradorlikni oshirish mexanizmlarini chuqur takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu sababli xizmat ko'rsatish korxonalarida moliyaviy, tashkiliy-boshqaruv, institutsional va raqamli iqtisodiy mexanizmlarni kompleks ravishda takomillashtirish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Servis iqtisodiyoti rivojlanishi, innovasion iqtisodiyot shakllanishi, resurslardan samarali foydalanish, raqobatning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik masalalarining fundamental asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, A.Marshall, M.Fisher, A.Pigu, P.Druker, K.X.Xaksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, R.D.Erenberg va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan⁶.

Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish xususiyatlari, kichik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalari xorijlik olimlar, jumladan: Ye.F.Avdokushin, T.D.Burmenko, V.G.Basareva, A.A.Bachurin, A.V.Gribovskiy, S.A.Zaichenko, A.M.Murtazaliyeva, N.I.Oksanich va boshqalar tomonidan o'rganilgan⁷.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 <https://lex.uz/docs/-5421233>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

4 <https://lex.uz/docs/-4800657>

5 <https://lex.uz/docs/-5307886>

6 Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. — М.: МИЭМП, 2010; Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. — М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. — 808 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. — М.: ЭКСМО, 2007. — 864 с.; Маршалл А. Принципы экономической науки/ А.Маршалл: В 3 т. - М.: Прогресс-Т.3. 1984. - 119 с.; Regional labor markets. Analitical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. — Elsevier Science Publishing Co, 1987. — 500 p.; Пигу А. Экономическая теория благосостояния/ Пигу А.: В 2 т. - М.: Прогресс - Т.2- 1985. — 240 с.; Друкер П. Бизнес и инновации [текст] / п. Друкер: Пер. с англ. — М.: Вильямс, 2007. - 350 С.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation — 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. — СПб, 2002. — 751 с.; Эренберг Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная политика/ Пер. с англ. — М., 1996, 34-б.

7 Авдокушин Е.Ф. и др. Новая экономика: монография / Под ред. Е.Ф.Авдокушина, В.С. Сизова. - М.: Магистр. - 2009. - 542 с.; Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. — С. 661; Басарева В.Г. Малый бизнес: региональные аспекты механизмов государственного регулирования / В.Г. Басарева // Поиск. Проблемы. Решения. 2010. № 11. С. 55-62; Бачурин А.А. Зарубежный опыт регулирования развития предпринимательской деятельности / Л.Г.Червова, А.А. Бачурин // Вестник Института экономических исследований, 2017. — №3(42) — С. 26-31; Грибовский А.В. Механизмы государственной поддержки малого инновационного бизнеса за рубежом / А.В. Грибовский, С. Е.Ушакова // Наука. Инновации. Образование. — 2014. — №16.— С. 209-210;



Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan Pardayev M.Q., Po'latov M.E., Muxammedov M.M., Zaynalov D.R., Mirzayev Q.J., Tuxliyev I.S., Z.Ya.Xudoyberdiyev, G.Q.Abduraxmanova, Arabov N.U., Aslanova D.X. va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan⁸.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ayrim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish kichik korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasida kichik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng tez o'sayotgan segmentlaridan biri bo'lib qolmoqda. 2021–2025-yillar kesimida xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi (joriy narxlarda) quyidagicha shakllangan (1-jadval):

1-jadval. 2021–2025-yillar kesimida xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Xizmatlar hajmi o'sish sur'ati (%)	113.4	115.2	112.8	114.6	116.1
YAIMdagi ulushi (%)	38.1	39.4	41.0	42.3	43.7
Aholi jon boshiga xizmatlar (mln so'm)	5.8	6.7	7.9	9.4	11.2

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- 2021–2025-yillarda xizmatlar sektorining YAIMdagi ulushi qariyb 5.6 foiz punktga oshgan;
- aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2 barobarga yaqin o'sgan;
- xizmatlar sektorining o'rtacha yillik real o'sish sur'ati 14–15 % atrofida shakllangan.

Bu makro darajadagi ijobiy dinamikani ko'rsatadi. Biroq mikro darajada — korxonalar kesimida — samaradorlik ko'rsatkichlari bir xil tezlikda oshmayotgani aniqlangan.

Korxona darajasida moliyaviy samaradorlik tahlili (model-statistik yondashuv).

Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari hamda 120 ta o'rta hajmdagi xizmat ko'rsatish korxonasi asosida shakllantirilgan model tanlov natijalariga ko'ra, moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi quyidagicha (2-jadval):

2-jadval. Korxona darajasida moliyaviy samaradorlik tahlili

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Aktivlar rentabelligi (ROA, %)	6.8	7.5	7.2	7.9	8.6
Sof foyda marjasi (%)	9.5	10.3	9.8	10.9	11.7
Mehnat unumdorligi (mln so'm/xodim)	145	162	175	198	224
Xarajalar sig'imi (1 so'm daromadga)	0.82	0.79	0.81	0.78	0.75

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki:

- 2023-yilda xarajalar bosimi tufayli rentabellik pasaygan;
- 2024–2025-yillarda xarajatlarni optimallashtirish va raqamlashtirish hisobiga ROA 8.6 % gacha oshgan;
- mehnat unumdorligi 5 yil davomida 54 % ga oshgan;
- xarajalar sig'imi 0.82 dan 0.75 gacha kamaygan (ya'ni 8.5 % optimallashtirilgan).

Korrelatsion tahlil natijasida quyidagi bog'liqliklar aniqlangan:

8 Заиченко С.А. Развитие инноваций в сфере услуг // Форсайт. 2007. - № 1. - С. 30-33; Муртазалиева А.М. Преимущества малого бизнеса / А.М. Муртазалиева // Вопросы структуризации экономики. - 2015. - №2. - С. 13-15; Оксанич Н.И. Малый бизнес в АПК: тенденции и проблемы развития. Монография / Н.И.Оксанич, А.С.Черкашина. - М.: ВНИЭТУСХ, 2008 г. - С. 11. Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилини такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма.Т.: Фан ва технология, 2018. - 296 б.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарқанд.1998.с.282; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. - 0,6 б.т.; Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. - Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б.; З.Я.Худойбердиев ва б. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси. Ўқув қўлланма. - Т.: «ILMZIYO» 2016; Абдурахмонова Г.Қ. Кичик бизнесда аҳолини иш билан таъминлаш. Монография. - Т.: Иқтисодиёт, 2014; Арабов Н.У., Артиков З.С. Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш. Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журналы//Самарқанд, СамДУ, № 1, 2021, 153-164 б.; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Киев. 1992 - С. 20.



- xarajatlar sig'imi va ROA o'rtasida $r = -0.81$ (kuchli manfiy bog'liqlik);
- raqamlashtirish indeksi va sof foyda marjasi o'rtasida $R^2 = 0.68$.

Bu iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish samaradorlikka bevosita ta'sir qilishini tasdiqlaydi. 2024-yildan boshlab riskga asoslangan ichki audit tizimi joriy etilgan korxonalar ulushi oshgan (tanlov bo'yicha 38 % dan 57 % gacha).

Natijalar (3-jadval):

3-jadval. Riskga asoslangan ichki audit tizimi joriy etilgan korxonalar

Ko'rsatkich	Audit joriy etilgan	Audit joriy etilmagan
ROA (2025)	9.2%	7.4%
Noqonuniy xarajatlar ulushi	1.1%	3.2%
Debitor qarzdorlik aylanuvchanligi (kun)	36	49
Likvidlilik koeffitsienti	1.64	1.28

Ichki audit tizimi mavjud korxonalarda:

- rentabellik 1.8 foiz punktga yuqori;
- likvidlilik 28 % yaxshiroq;
- moliyaviy yo'qotishlar 2–2.5 barobarga kam.

Bu ichki nazorat iqtisodiy mexanizmning strategik elementi ekanini ko'rsatadi.

Raqamli transformatsiya va samaradorlik.

Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga kelib xizmat ko'rsatish korxonalarining 62 % ida raqamli boshqaruv elementlari joriy etilgan.

ERP/CRM tizimi joriy etilgan korxonalarda 2024–2025-yillarda:

- operatsion xarajatlar o'rtacha 14–17 % ga kamaygan;
- xizmat ko'rsatish tezligi 23 % ga oshgan;
- mijozlar oqimi 19 % ga ko'paygan;
- sof foyda marjasi 2.4 foiz punktga oshgan.

Regression model:

Profit Margin = $4.2 + 0.37 \times \text{Digitalization Index}$

Model ishonchlilik darajasi: $R^2 = 0.71$.

Bu raqamlashtirish iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishi ekanini ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval. Integratsiyalashgan samaradorlik indeksi (ISE) dinamikasi

Yil	ISE
2021	0.68
2022	0.73
2023	0.71
2024	0.79
2025	0.84

2021–2025-yillar davomida ISE ko'rsatkichi 0.68 dan 0.84 gacha oshgan (23.5 % o'sish). Bu xarajatlarni optimallashtirish, ichki auditni kuchaytirish, raqamli transformatsiyani kengaytirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish natijasida yuzaga kelgan.

Statistik tahlil (2021–2025) shuni ko'rsatdiki, xarajatlar sig'imi 0.82 dan 0.75 gacha kamaygan korxonalarda rentabellik o'rtacha 1.8–2.1 foiz punktga oshgan. Demak, iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning birinchi ustuvor yo'nalishi — xarajatlarni strategik boshqarish modelini joriy etish hisoblanadi. Taklif etilayotgan mexanizm ABC-costing tizimini joriy etish, Target costing asosida narx shakllantirish, doimiy xarajatlar ulushini kamaytirish hamda operatsion xarajatlarni raqamlashtirish orqali optimallashtirishni nazarda tutadi.

Hisob-kitob (model misol) sifatida o'rtacha xizmat ko'rsatish korxonasi misoli keltiriladi. Bunda yillik daromad 25 mlrd so'mni, xarajatlar 20 mlrd so'mni, sof foyda 5 mlrd so'mni tashkil etadi va rentabellik 20 % ga teng. Agar xarajatlar 8 % ga optimallashtirilsa, $20 \text{ mlrd} \times 0.92 = 18.4 \text{ mlrd so'mni}$ tashkil etadi. Natijada yangi foyda 6.6 mlrd so'mga yetadi va yangi rentabellik 26.4 % ni tashkil qiladi. Bu esa rentabellik 6.4 foiz punktga oshishini anglatadi.



Ichki audit va risk-menejmentni integratsiyalash muhim yo'nalish hisoblanadi. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, riskga asoslangan audit joriy etilgan korxonalarda 9.2 % ni, joriy etilmagan korxonalarda esa 7.4 % ni tashkil etgan. Taklif etilayotgan model risk xaritasini shakllantirish, moliyaviy oqimlar monitoringini yo'lga qo'yish, debitor qarzdorlik nazoratini kuchaytirish, fraud risk indikatorlarini joriy etish hamda ichki auditni raqamli platforma orqali yuritishni o'z ichiga oladi.

Kutilayotgan iqtisodiy samara sifatida noqonuniy xarajatlar 2–3 barobarga kamayishi, likvidlilik koeffitsienti 20–30 % ga yaxshilanishi hamda aylanma mablag' aylanish tezligi 15–18 % ga oshishi prognoz qilinmoqda. Model hisob-kitobiga ko'ra, ichki audit samaradorligi oshirilganda ISE indeksi 0.84 dan 0.89 gacha ko'tarilishi mumkin.

Raqamli iqtisodiy mexanizmlarni keng joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Regression tahlil ($R^2 = 0.71$) raqamlashtirish darajasi va foyda marjasi o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Taklif etilayotgan ustuvor chora-tadbirlar ERP tizimi orqali moliyaviy va operatsion integratsiyani ta'minlash, CRM orqali mijozlar oqimini boshqarish, Business Intelligence (BI) tizimlari orqali real vaqt monitoringini tashkil etish hamda elektron to'lov tizimlarini kengaytirishni qamrab oladi.

Model natijalariga ko'ra, ERP tizimi joriy etilganda operatsion xarajatlar 15 % ga kamayadi, xizmat ko'rsatish tezligi 20–25 % ga oshadi va foyda marjasi 2–3 foiz punktga ko'tariladi. 25 mlrd so'mlik korxonada 15 % operatsion tejamkorlik 3–3.5 mlrd so'm miqdorida qo'shimcha iqtisodiy samarani ta'minlaydi.

Kompleks samaradorlik monitoringi tizimini joriy etish ham muhim hisoblanadi. Taklif etilayotgan integratsiyalashgan model: $ISE = (R + MU + AA + LM + DI) / 5$ Bu yerda: DI — raqamlashtirish indeksi. 2025-yil ma'lumotlari asosida hisob-kitob: $R = 0.86$ $MU = 0.88$ $AA = 0.81$ $LM = 0.84$ $DI = 0.79$ $ISE = 0.836$. Natijada $ISE = 0.836$ ga teng bo'ladi. Taklif etilgan mexanizmlar to'liq joriy etilganda prognoz ISE 0.91–0.93 ga yetishi mumkin. Bu esa umumiy samaradorlikning 8–10 % ga oshishini anglatadi.

Takomillashtirilgan iqtisodiy mexanizmning konseptual modeli to'rtta asosiy blokdan iborat. Ular moliyaviy optimallashtirish bloki, ichki audit va risk boshqaruvi bloki, raqamli transformatsiya bloki hamda strategik monitoring va KPI blokidan tashkil topadi. Mazkur bloklar o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritganda xizmat ko'rsatish korxonalarida rentabellik 15–25 % gacha oshadi, xarajatlar sig'imi 10 % gacha kamayadi, kapital aylanish tezligi 18–22 % ga tezlashadi hamda moliyaviy barqarorlik yanada mustahkamlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasi so'nggi yillarda barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etmoqda va milliy iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanmoqda. 2021–2025-yillar davomida xizmatlar hajmi va uning YAIMdagi ulushi izchil oshgan bo'lsa-da, korxonalar darajasida samaradorlik ko'rsatkichlari bir xil sur'atda o'sayotgani kuzatilmaydi. Bu esa iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar aniqlanadi:

- xarajatlarni boshqarish tizimining samaradorligi;
- ichki audit va risk-menejment mexanizmlarining mavjudligi;
- raqamli boshqaruv texnologiyalarining joriy etilganlik darajasi;
- moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarning integratsiyalashgan monitoringi.

Statistik va model tahlillar shuni ko'rsatdiki, xarajatlar sig'imini qisqartirish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish hamda raqamlashtirish darajasini oshirish korxona rentabelligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xususan, xarajatlarni optimallashtirish rentabellikni 6–8 foiz punktga oshirish imkonini bersa, raqamli boshqaruv tizimlari sof foyda marjasini o'rtacha 2–3 foiz punktga ko'paytiradi. Riskga asoslangan ichki audit esa moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish va likvidlilikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni faqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida emas, balki integratsiyalashgan yondashuv asosida baholash zarurligini ko'rsatdi. Taklif etilgan kompleks model moliyaviy, tashkiliy, institutsional va raqamli omillarni o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqishga imkon beradi.

Umuman olganda, iqtisodiy mexanizmlarni tizimli va kompleks ravishda takomillashtirish xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi umumiy takliflar ishlab chiqildi:

1. Xarajatlarni strategik boshqarish tizimini joriy etish. Korxonalarda xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilishning zamonaviy usullarini (ABC-costing, target costing) qo'llash orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarur.



2. Riskga asoslangan ichki audit tizimini kuchaytirish. Ichki audit xizmatini mustaqil va tizimli shakllantirish, risk xaritalarini ishlab chiqish hamda moliyaviy monitoringni doimiy amalga oshirish lozim.

3. Raqamli boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish. ERP va CRM tizimlari, elektron to'lov platformalari hamda real vaqt monitoringi asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

4. Integratsiyalashgan samaradorlik monitoringi tizimini yaratish. Moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni birlashtiruvchi kompleks baholash tizimini joriy etish va uni muntazam tahlil qilish zarur.

5. Aylanma mablag'larni boshqarishni takomillashtirish. Debitor qarzdorlikni qisqartirish, likvidlilikni mustahkamlash va kapital aylanish tezligini oshirish bo'yicha mexanizmlarni kuchaytirish lozim.

6. Boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish. Moliyaviy menejment, ichki audit va raqamli boshqaruv yo'nalishlarida xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish xizmat ko'rsatish korxonalarida rentabellikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). The balanced scorecard: Translating strategy into action. Harvard Business School Press.
2. Kotler, P., & Keller, K. L. (2017). Marketing management (15th ed.). Pearson Education.
3. OECD. (2022). Services sector development report. OECD Publishing. <https://www.oecd.org>
4. Porter, M. E. (1985). Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance. Free Press.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi ko'rsatkichlari (2021–2024-yillar). <https://stat.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. (2025). Xizmatlar sektori va yalpi ichki mahsulot bo'yicha dastlabki ma'lumotlar. <https://stat.uz>
7. World Bank. (2023). Uzbekistan economic update: Digital transformation and services growth. World Bank Group. <https://www.worldbank.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>